

“O‘ZBEKISTON - QIRG‘IZISTON CHEGARASIDAGI ANKLAV
MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH YO‘LLARI”

Oripov Bahodir Olimjon o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti, tarix fakulteti, tarix yo‘nalishi

Email: bahodiroripov005@gmail.com.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston va Qirg‘iziston chegarasidagi anklav va eksklav hududlarning tarixiy shakllanishi, geografik joylashuvi hamda bugungi kundagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy muammolari tahlil qilingan. Ayniqsa Farg‘ona vodiysida joylashgan anklav hududlarning paydo bo‘lish sabablari hamda ularning davlatlararo munosabatlarga ta‘siri tahlil qilinadi. Mazkur tadqiqot jarayonlarida davlatlar o‘rtasida transchegaraviy hamkorlik, diplomatik siyosatlari yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Anklav, eksklav, Farg‘ona vodiysi, Qirg‘iziston, O‘zbekiston, Vorux, Barak, millatlararo munosabatlar, suv resurslari, geosiyosat, delimitatsiya.*

Abstract: *This article analyzes the historical formation, geographical location, and current political, economic, and social problems of enclave and exclave territories on the border between Uzbekistan and Kyrgyzstan. In particular, the study examines the reasons for the emergence of enclave territories located in the Fergana Valley and their impact on interstate relations. The research also highlights transboundary cooperation and diplomatic policies between the states.*

Keywords: *Enclave, exclave, Fergana Valley, Kyrgyzstan, Uzbekistan, Vorukh, Barak, interethnic relations, water resources, geopolitics, delimitation.*

Аннотация: *В данной статье анализируются историческое формирование, географическое расположение, а также современные политические, экономические и социальные проблемы анклавных и эксклавных территорий на границе Узбекистана и Кыргызстана. Особое внимание уделяется причинам возникновения анклавных территорий, расположенных в Ферганской долине, а также их влиянию на межгосударственные отношения. В исследовании также освещаются вопросы трансграничного сотрудничества и дипломатической политики между государствами.*

Ключевые слова: *анклав, эксклав, Ферганская долина, Кыргызстан, Узбекистан, Ворух, Барак, межэтнические отношения, водные ресурсы, геополитика, делимитация.*

Kirish.

Bugungi kunda dunyoning ko‘plab hududlarida chegaralar bilan bog‘liq muammolar davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa anklav va eksklav

hududlar mavjud bo'lgan mintaqalarda transport, suv, yer va aholi harakati bilan bog'liq masalalar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyo, xususan Farg'ona vodiysi ana shunday murakkab hududlardan biri hisoblanadi. Chunki bu hududda turli millat vakillari uzoq yillar davomida bir hududda aralash holda yashab kelgan.

Mustaqillikdan keyin ushbu hududlar davlatlararo munosabatlarda muhim siyosiy va ijtimoiy masalaga aylandi. Chunki chegaralarning qat'iy nazorat qilinishi aholi harakati, savdo, transport va suv resurslaridan foydalanishda turli muammolarni yuzaga keltirdi. Ayrim hollarda esa bu muammolar millatlararo kelishmovchiliklar va chegara mojarolariga ham sabab bo'ldi.

Asosiy qism.

XX asrning 1924–1930-yillarida amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish hamda keyingi yillarda “milliy davlatlar”ning shakllanishi natijasida etnoslar hududiy jihatdan bir-biridan ajratib qo'yildi. Sobiq Ittifoq davrida bu chegaraviy cheklovlar deyarli sezilmagan bo'lsa-da, davlatlar mustaqillikka erishgandan so'ng ko'plab chegara muammolari va hududiy nizolar yuzaga keldi. Xususan, anklav va eksklav hududlar ana shunday muammoli zonalar qatoriga kiradi. Sobiq ko'p millatli Ittifoq parchalanib, mustaqillik davri boshlanishi bilan Markaziy Osiyoda 8 ta anklav va eksklav hudud shakllandi. Ular qatoriga Sox, Shohimardon, Shimoliy Sox yoki Chon-Qora, Jangail, Sarvak, Vorux, Kayrag'och va Barak hududlari kiradi[1:93].

Markaziy Osiyodagi barcha anklav va eksklav hududlar etnik jihatdan murakkab hisoblangan Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, bu yerda shakllangan anklav va eksklavlar dunyoning ko'plab hududlarida bo'lgani kabi mukammal bo'lmagan delimitatsiya jarayonining “natijasi” hisoblanadi. Anklavlarning aksariyati 1930–1955-yillar oralig'ida shakllangan bo'lsa-da, ularning rasmiy geosiyosiy jihatdan anklav maqomiga aylanishi 1991-yildan boshlangan. Anklavlar odatda “geosiyosiy orol” sifatida qaralsa, Farg'ona vodiysidagi anklavlar joylashuviga ko'ra “geosiyosiy arxipelag”ni eslatadi. Biroq ularning geosiyosiy, ijtimoiy-etnik, geoiktisodiy hamda transport-geografik xususiyatlari bir-biridan keskin farq qiladi[2:34]. Shuningdek, ko'plab anklav hududlarda asosiy muammolarni o'rganishlar, tadqiqotlar natijasida ko'pchilik mutaxassislarinif fikri hududlari taqsimotlarni teng ravishda manfaatlarini birdek olib borish nazarda tutiladi. Bunday jarayonlar xususida so'z borganda Sovet paytidagi milliy hududiy chegaralarni tatbiq etish nazarda tutiladi.

Ba'zi olimlar anklavlarni chegaralarning “g'ayritabiiy” shakli deb hisoblaydi, boshqalar esa ularni unchalik muhim bo'lmagan hudud sifatida baholaydi. Sobiq Sovet Ittifoqi parchalangandan so'ng dunyoda yigirmaga yaqin yangi anklav paydo bo'ldi, shundan to'qqiztasi Farg'ona vodiysida joylashgan. Hozirgi kunda dunyo siyosiy xaritasida 282 ta anklav mavjud bo'lib, ular shakli va boshqaruv usullariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Farg'ona vodiysidagi eng muhim anklavlar qatoriga Sox, Shohimardon, Vorux va Barak

kiradi. Bundan tashqari, Sarvak, Kayrag'och, Jangail va Chon-Qora kabi kichik anklavlar ham mavjud[3:2-3]. Ayrim hududlar juda kichik bo'lib, atigi bir kvadrat kilometr maydonni egallaydi. Tarixchilar Farg'ona vodiysidagi murakkab chegaralar va anklavlarning paydo bo'lish sabablarini turlicha izohlaydi. Ba'zilarning fikricha, bu sovet hokimiyatining ataylab amalga oshirgan siyosati bo'lgan.

Suv resurslari masalasi ham mintaqadagi eng og'riqli muammolardan biridir. Suv tanqisligi va unga bo'lgan talabning ortib borishi davlatlararo munosabatlarga salbiy ta'sir qilmoqda. Zamonaviy suv tejovchi texnologiyalarning yetarlicha joriy etilmagani ham vaziyatni murakkablashtirmoqda. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida yaqinlashuv va hamkorlik kuchaymoqda. Mintaqa davlatlari rahbarlari o'zaro uchrashuvlar orqali chegara, suv, iqtisodiy hamkorlik va xavfsizlik masalalarini muhokama qilmoqda[4:120-121]. Qirg'izistonda suv manbasi seroblighi uchun O'zbekiston hududiga ham qisman beradi. Bu esa mustaqillik paytida hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'yganliklariga imkon berdi. Asosan, aholining ko'payib borishi va suvga bo'lgan ehtiyojlar oshib bormoqda. Sovet davrida chegaralar aniq va adolatli belgilanmagani sababli hozirgi kunda davlatlar o'rtasida turli hududiy muammolar kelib chiqmoqda. Ayniqsa anklav hududlar eng murakkab joylardan biri hisoblanadi. Chunki bu hududlarda yo'l, suv, yer va millatlararo munosabatlar bilan bog'liq kelishmovchiliklar tez-tez yuzaga keladi.

Davlatlar o'rtasidagi siyosiy barqarorlik va o'zaro yaxshi munosabatlarga qarab, anklav yoki eksklav hududlar iliq munosabatlarni mustahkamlovchi omil yoki aksincha sovuq munosabatlarni yanada keskinlashtiruvchi hududga aylanishi mumkin. Bir emas, bir nechta anklavlarning mavjudligi esa bunday hududlarga yanada ko'proq e'tibor qaratishni talab qiladi. Bunday hududlar asosan Gang havzasi (Bangladesh-Hindiston), Farg'ona vodiysi



(O‘zbekiston–Qirg‘iziston), Kavkaz (Armaniston–Ozarbayjon), Yaqin Sharq (Kipr–Shimoliy Kipr), Gibraltar va Reyn havzalarida uchraydi[5:362]. Ushbu hududlarda mavjud bo‘lgan anklavlar yirik ma‘muriy hudud tomonidan boshqariladi.

Rasm: Эльдос Фазылбеков / «Газета.uz»

Vorux anklavi ham tez-tez mojarolar kuzatiladigan hududlardan biridir. Yo‘l qurilishi, suv va yer resurslaridan foydalanish bilan bog‘liq kelishmovchiliklar ko‘pincha zo‘ravonlikka sabab bo‘lmoqda. Ayrim hollarda garovga olish, avtomobillarga hujum qilish va chegaradagi to‘qnashuvlar ham sodir bo‘lgan. Bu nizolar dastlab iqtisodiy yoki hududiy masaladan boshlansa-da, keyinchalik etnik ziddiyat tusini olishi mumkin. Barak anklavi esa O‘zbekiston hududidagi Qirg‘iziston eksklavi bo‘lib, u yerda yashash qiyinlashgani sababli aholining katta qismi boshqa hududlarga ko‘chib ketgan. Aholi harakatlanishidagi cheklovlar va infratuzilma muammolari bu hududni deyarli bo‘shab qolishiga olib kelgan[6:5-8]. Ushbu anklav hududlarda qirg‘iz xalqi uchun migratsiya yoki aholining notekis joylashganligi sababli muammolar dolzarb ko‘rinishga kelmoqda. Buning yo‘li sifatida chegaralarni infratuzilma geosiy mojarolarni shaffof va halol tarzda hal qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qirg‘iziston-O‘zbekiston chegarasi 1991-yilda Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin xalqaro chegara maqomini olgan bo‘lsa-da, uning shakllanish tarixi ancha oldin, 1924-yildan boshlanadi. Chunki bu davrgacha hozirgi Qirg‘iziston va O‘zbekiston davlatlari mavjud bo‘lmagan, “qirg‘iz” va “o‘zbek” tushunchalari ham bugungidek shakllanmagan edi. Bugungi O‘zbekiston va Qirg‘iziston tarixchilari XIX asrdagi Farg‘ona vodiysida aynan o‘z millatining ustun o‘rin tutganini ta’kidlaydi. Biroq ayrim tadqiqotchilar bu qarashlarni to‘liq tarixiy haqiqat deb hisoblamaydi. Ularning fikricha, o‘sha davrda Farg‘ona vodiysi hozirgidek aniq milliy chegaralar bilan bo‘linmagan, aholining etnik tarkibi esa bir-biri bilan aralash holda yashagan[7:6]. Menimcha, aynan mana shu tarixiy aralash yashash tizimi keyinchalik chegaralar masalasini murakkablashtirib yuborgan. Chunki Sovet davrida hududlar millatlar asosida bo‘linishga harakat qilingan bo‘lsa-da, aholining joylashuvi aniq chegaralarga mos kelmagan. Natijada ayrim qishloq va hududlar boshqa davlat hududi ichida qolib ketgan. Bu esa hozirgi kunda anklav va eksklav hududlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan. Ayniqsa Farg‘ona vodiysida aholi zich joylashgani va turli millat vakillari bir hududda yashagani sababli chegara masalalari bugungi kungacha dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu sababli Qirg‘iziston - O‘zbekiston chegarasi nafaqat siyosiy, balki tarixiy va etnik jihatdan ham murakkab hudud hisoblanadi.

Vinokurov anklavlar bilan bog‘liq eng muhim muammolar sifatida tranzit, iqtisodiy bog‘liqlik va xavfsizlikni ko‘rsatadi. Agar asosiy davlat bilan o‘rab turgan davlat o‘rtasidagi munosabatlar yaxshi bo‘lsa, anklav aholisi erkin harakatlana oladi va hudud normal rivojlanadi. Ammo siyosiy munosabatlar yomonlashsa, anklav aholisi transport, savdo va kundalik hayotda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi[8:23-27]. Natijada, hududlar

orasida aloqalar yomonlashib ketish holatlari ham kuzatiladi. Buni misol sifatida Yevropa anklavlarini ko'rsatish mumkin. Mutaxasislarning fikricha ko'plab anklav va eksklav hududlar faqatgina urushlar paytida bo'lganligi oqibatida ham chegara nazoratlarida ham davlatlarning yuritgan siyosatlarini birinchi navbatda turadi. Chunki har bir davlatlar bunday ajralib qolgan hududni o'zlari istab, xoxlashmaganlar bu tabiat in'om etgan mo'jizalardan biri sifatida tarixiy kitoblarda yozib qoldirilgan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston va Qirg'iziston chegarasidagi anklav va eksklav hududlar bugungi kunda Markaziy Osiyodagi eng murakkab hududiy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa Farg'ona vodiysida joylashgan Sox, Shohimardon, Vorux va Barak kabi hududlar tarixiy, etnik, siyosiy hamda iqtisodiy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ushbu hududlarning paydo bo'lishiga asosan Sovet davridagi milliy-hududiy chegaralanish siyosati sabab bo'lgan. O'sha davrda aholining joylashuvi, etnik tarkibi va geografik omillar to'liq hisobga olinmagani natijasida bugungi kungacha davom etayotgan chegaraviy muammolar yuzaga kelgan. Ayniqsa suv va yer resurslari masalasi mintaqadagi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga, so'nggi yillarda O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasidagi munosabatlarning yaxshilanib borayotgani ushbu muammolarni tinch yo'l bilan hal qilish imkoniyatini kuchaytirmoqda. Davlatlar o'rtasidagi hamkorlik, chegaralarni bosqichma-bosqich aniqlash, infratuzilmani rivojlantirish hamda mahalliy aholi manfaatlarini hisobga olish anklav hududlardagi vaziyatni barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zhumakhanov Sh.Z., Mirzaakhmedov Kh.S., Soliev I.R. Enclave wa exclave xududlar geography / Masul muarrir gffd, prof. A.S. Soliev. –Namangan .: Namangan, 2014. -128 b.
2. Tashpulatov A., Kakhkhorova U. *Uzbek-Kyrgyz Relations: Overcoming the Problem of the Barak Enclave* // Namangan State University; National University of Uzbekistan.
3. Gabdulhakov R. *Geographical Enclaves of the Fergana Valley: Do Good Fences Make Good Neighbors?* // Central Asia Security Policy Briefs
4. Berdiyev B.O. *Central Asia: International Relations As A Factor Of Regional Stability And Integration* // *The American Journal of Political Science Law and Criminology*. – 2020. – Vol. 02, Issue 10. – P. 118–122. – DOI: <https://doi.org/10.37547/tajpslc/Volume02Issue10-18>
5. Jumakhanov Sh.Z., Tashpulatov A. *Geographical Models of Enclaves / Exclaves in the Type of "Matryoshka"* // Namangan State University. – Namangan, Uzbekistan.

6. Gabdulhakov R. *The Highly Securitized Insecurities of State Borders in the Fergana Valley // The Central Asia Fellowship Papers.* – 2015.

7. Nick Megoran, "Rethinking the Study of International Boundaries: A Biography of the Kyrgyzstan-Uzbekistan Boundary", *Annals of the Association of American Geographers*, 2011

8. Винокуров Е.Ю. В 49 Теория анклавов. — Калининград: Терра Балтика, 2007.

